YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL, OKTYABR / VI MAXSUS SON

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

IQTISODIYOT FAKULTETI



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Karimov Norboy G‘aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay’ati:
Salimov Oqil Umrzoqovich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G‘afforovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko‘nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O‘z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
Ochilov Farkhod, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig‘i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o‘g‘li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li, TDIU katta o‘qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

Elektron nashr. 307 sahifa.
E’lon qilishga 2026-yil 24-oktyabrda ruxsat etildi.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:
Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po‘latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
G‘afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o‘qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:
Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

MUNDARIJA

INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO‘JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH: YUTUQLAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR 9
Yunusov Xudoynazar Beknazarovich

XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA IJARA MUNOSABATLARI VA INVESTITSION AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH 11
Egamberdiyeva Salima Rayimovna

KORXONA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA‘MINLASH VA RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH FOYDA KO‘RSATKICHLARINI 2029-YILGACHA PROGNOZI 20
Xasanov Baxodir Akramovich, Maxmudov Azamat Normuradovich, Atamurodov Saidmurod Yaxyoyevich

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O‘TISH MASALALARI 23
Kurbanov Ziyat Niyazovich

ОРГАНИЗАЦИЯ НАЛОГОВОГО УЧЕТА И ОПТИМИЗАЦИЯ ЗАТРАТ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЛОГИСТИКИ 28
Н. Бердимурат, А. Бердимурат

QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA BIOLOGIK AKTIVLAR AUDITINI RISKLARGA YO‘NALTIRILGAN HOLDA TASHKIL ETISH 34
Alikulov Abdimo‘min Ismatovich, Ruzieva Elvira Abdulmitovna, Rakhimova Umida Rabbimovna

CHORVACHILIK KORXONALARI VA AGROKLASTERLARDA BIOLOGIK AKTIVLAR HISOBINI BHXS (IAS) 41 “QISHLOQ XO‘JALIGI” STANDARTI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 40
Alikulov A.I., Sayfiyev S. S., Karimov I.Sh.

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARINING IQTISODIY MOHIYATI, ULARNI TASNIFLASH VA BAHOLASHNING ZARURATI 47
Xasanov Baxodir Akramovich, Maxmudov Azamat Normuradovich, Atamurodov Saidmurod Yaxyoyevich

BALIQCHILIK XO‘JALIKLARIDA AYLANMA KAPITALDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI IQTISODIY TAHLIL QILISH VA BARQAROR RIVOJLANISHNI BOSHQARISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI 50
Fayziyev Oybek Raximovich

CHORVACHILIK BIOLOGIK AKTIVLARI HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI 57
Menglikulov Baxtiyor Yusupovich

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AGROSERVISNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI 63
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich

QISHLOQ AHOLISI DAROMADLARINI KO‘PAYTIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI 68
Amaniyazov Rinat Bayniyazovich

MINTAQAVIY BOG‘DORCHILIKDA RESURS VA XARAJATLAR TARKIBINI OPTIMALLASHTIRISH (Samarqand viloyati tumanlari misolida) 74
Akbarov Husan O‘zbekxonovich

SANOAT SOHASIDA INVESTITSION RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI 79
Azimova Hulkar Egamberdiyevna

QISHLOQ XO‘JALIGI ISHLAB CHIQARISHINING TEXNOLOGIK VA BIOLOGIK XUSUSIYATLARI HAMDA ULARNING XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYA METODOLOGIYASIGA TA’SIRI 86
Mardonov Mamed Shavkatovich

BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASHDA INVESTITSIYALAR HAMDA JOZIBADOR INVESTITSION MUHITNING O‘RNI VA AHAMIYATI 89
Raxmatov Jonibek Ismoil o‘g‘li

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

SAMARQAND VILOYATIDA MAISHIY XIZMATLARNI RIVOJANTIRISH ASOSIDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHGA OID TAVSIYALAR 96
Navruzbek Azimjonovich Rajabov

MAMLAKATIMIZDA AHOLINI KAMBAG‘ALLIK DARAJASINING TAHLILI VA KAMBAG‘ALLIKNI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY IMKONIYATLARI 99
Saparov Murod Irgashovich

O‘ZBEKISTONDA SAVDO VA ELEKTRON SAVDO XIZMATLARI TARAQQIYOTINING ILMIY ASOSLARI VA RAQAMLI IQTISODIYOTGA MOS RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI 102
Jurakulov Shoxrux Baxtiyorovich

O‘ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOG‘INING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI 108
Eshanqulov Sirojiddin Xakimovich

INNOVATSION AGROTEXNIK TADBIRLAR (XOMTOK VA BARG SONINI BOSHQARISH) ASOSIDA MAYIZBOP UZUMCHILIKDA BARQAROR HOSILDORLIKNI TA’MINLASH YO‘LLARI 114
Abdurasulov Otabek Abdurasul o‘g‘li, Mahmudova Fotima Erkin qizi

ASALARICHILIK XO‘JALIKLARIDA AKTIVLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 117
Ishturdiev Hasan Abdugapparovich

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ЗАТРАТ БИОЛОГИЧЕСКОВ АКТИВОВ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ 121
Изатиллаева Комила, Эшмурадов Улугбек Ташмуратович

AGROKLASTERLARDA TOVAR-MODDIY QIYMATLIKLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING USLUBIY YO‘NALISHLARI 128
Raximova Umida Rabbimovna, Vahobov Diyor Husan o‘g‘li, Mardonova Parizoda Ziyodullayevna, Djuraqulov Sherali Abdullayevich

O‘ZBEKISTON KIMYO SANOATI KORXONALARI DIVERSIFIKATSIYALASHUVI ASOSLARI 133
Razikov Otabek Rustamovich

QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALARNING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH 137
Raximova Umida Rabbimovna, Qodirberganova Tabassum Ro‘zimboy qizi, Xazratqulov Firdavs Firuzovich, Qadamboyev Mirxandbek Xamidjon o‘g‘li

LIMON MEVASINING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI HAQIDA BA’ZI TUZUKLAR 140
N.Mamatkulov, Ochilova Marg‘uba

KICHIK BIZNESNI EKSPORTGA OLIB CHIQISH: AMALIY STRATEGIYALAR VA HAYOTIY TAJRIBALAR 143
R. T. Qudratov, A. X. Sodiqov

FERMER XO‘JALIKLARIDA SOTISH JARAYONLARI HISOBI VA AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH 147
Ruziyeva Dilafruz Faxridinovna, Abdunazarova Sevinch

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TURISTIK XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR 154
Tleumuratov Baxadir Genjemuratovich

XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA BIZNES-JARAYONLARNI AVTOMATLASHTIRISH VA OPTIMALLASHTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI 159
Berdiyev Nazirjon Abduvoseyevich

G‘ALLA YETISHTIRISHDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBI VA MAHSULOT TANNARXINI HISOBLASHNING HOZIRGI HOLATI 165
Sh.X. Yuldashev, S.S. Nematilloyev

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 171
Berdiyev Nazirjon Abduvoseyevich

YASHIL IQTISODIYOT SHAROTIDA OZBEKISTONDA ISHSIZLARGA YANGI ISH ORINLARINI YARATISH 177
Nazarova M.Sh., Berdikulov Ravshan, Nematullaev Ozodbek, Xasanov Rizo

ПОВЫШЕНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА НА ОСНОВЕ ИНВЕСТИЦИЙ, ИННОВАЦИЙ И ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 181
Шадиева Гулнора Мардиевна

KAMBAG‘ALLIK DARAJASINI QISQARISHIGA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI TA’SIRINI TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI 185
Saparov Murod Irgashovich

SUT CHORVACHILIGIDA MAHSULOT TANNARXINI OMILLI VA MARJINAL TAHLIL QILISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH 189
Abduganieva Dildora Bobir qizi, Alikulov Abdimo‘min Ismatovich

ASALARICHILIK XO‘JALIKLARIDA TA’MINOT JARAYONI HISOBINING HOZIRGI HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI 195
Ishturdiev Xasan Abdigapparovich

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI 200
Ochilova Mohigul Toshtemir qizi

ПИЩЕВЫЕ ОТХОДЫ И СТРАТЕГИИ БОРЬБЫ С НИМИ 214
Казакова Зулайхо Салахиддиновна, Хотамова Юлдуз Юнусжоновна, Авалбаева Самира Кахрамон кизи, Ахророва Малохат Аброр кизи

AGROKLASTERLARDA TOVAR-MODDIY QIYMATLIKLAR BO‘YICHA ICHKI NAZORAT VA AUDITNI TAKOMILLASHTIRISH 221
Raximova Umida Rabbimovna, Jumaniyazova Munisa Jamoliddin qizi, Xoliqberdiyev Firdavs Ilhamovich, Nafasov Og‘abek Bobirjon o‘g‘li

KORXONALARDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALARI TANNARXINI IAS 2 STANDARTI BO‘YICHA SHAKLLANTIRISH VA UNING AUDITORLIK TAHLILI 225
To‘xtayev Zafar Mamatqulovich, Omonov Sindorbek G‘ayrat o‘g‘li, Abdusalomov Jasurbek Abdukarim o‘g‘li

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ASOSIY VOSITALARNI TAN OLISH, ULARNI BUXGALTERIYA HISOBIDA BAHOLASH VA AMORTIZATSIYA USULLARI: XALQARO VA O‘ZBEKISTON YONDASHUVLARINING QIYOSIY TAHLILI 229
Azzamova Dinora Xolmumin qizi

O‘ZBEKISTONDA BUXGALTERIYA HISOBINI XALQARO STANDARTLARGA UYG‘UNLASHTIRISH SHAROITIDA XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH 232
X. Axmedov, S. Karimov, M. Raxmonova, G. B. Narziyeva

СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ БИЗНЕСА 237
Р. С. Макашева, А. Бердимурат, Азизова София, Акимова Милан

ИНВЕСТИЦИИ, ИННОВАЦИИ И РЕБРЕНДИНГ КАК ФАКТОРЫ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА 242
Шадиева Гулнора Мардиевна

SAMARQAND VILOYATI MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG‘IDA KLASTER TIZIMINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA UNI OSHIRISH YO‘LLARI 246
Roziyeva Gulhayo Choriyevna

PAXTA YETISHTIRISHDA INNOVATSION AGROTEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI 254
Z.N.Ishniyazov

O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA XARAJATLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH 257
G. B. Narziyeva, Baxriddinov Samandar, Jumayev Azamat

O‘ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A’ZO BO‘LISHI VA MILLIY IQTISODIY ISLOHOTLAR: IMKONIYATLAR, XATARLAR VA STRATEGIK MOSLASHUV 262
Kazakova Zulayho Salaxiddinovna, Yaxshiliqov Jo‘raqul Rahmiddin o‘g‘li, Napasov Aslonbek Asqar o‘g‘li

QISHLOQ XO‘JALIGIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA BARQAROR RIVOJLANISHGA TA’SIRI 267
Ruziyeva Dilafruz Faxridinovna, Tursunov Samad Dilshod o‘g‘li, Tog‘aymurodov Sorbon Suhrob o‘g‘li, Eshqulov Murodjon O‘tamurod o‘g‘li

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

FAOL TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMINING ASOSLARI 274
Baxtiyorov Mexro‘zxon Baxtiyorovich, Salamov Ibroxim

УЧЕТ И ОПТИМИЗАЦИЯ ТРАНСПОРТНЫХ ЗАТРАТ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЛОГИСТИКИ: СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ 279
Бердимурат Н., Сапарбай А., Қырықбай Қ.

СИСТЕМА НАЛОГОВ И СБОРОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ РЕФОРМЫ И ВЕКТОР РАЗВИТИЯ 286
Бахтиярова Севинчой Абдиязовна, Султонбоева Севинчой Азизбековна

AKVAKULTURA: TABIIY-IQLIM SHAROITLAR, BALIQ YETISHTIRISH USULLARI VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI 289
Urdushev Xamrakul, Rabbimova Parvina Askar qizi

БИОЛОГИЧЕСКИЕ АКТИВЫ КАК СПЕЦИФИЧЕСКИЙ ОБЪЕКТ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА 293
Кураленко Алина, Эшмурадов У.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В МАЛОМ И СРЕДНЕМ БИЗНЕСЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ 298
Туякбаева Жазира, Таженова Хурлиман, Ш. Юлдашев

QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA JAVOBGARLIK MARKAZLARI SEGMENTAR HISOBOTLARINING XUSUSIYATLARI 301
Alikulov G‘olib Abdimuminovich

UO‘K 338.48:004.9

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TURISTIK XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Tleumuratov Baxadir Genjemuratovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil tadqiqotchisi
ORCID: 0009-0008-5076-0899
E-mail: bahadirtleumuratov6@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion turistik xizmatlarni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar tizimli o‘rganilgan. Tadqiqotning maqsadi innovatsion turistik xizmatlarga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash, ularni ilmiy asosda tasniflash hamda ulardan samarali foydalanish mexanizmlarini asoslashdan iborat.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, innovatsion turistik xizmatlar, ta’sir etuvchi omillar, turizm infratuzilmasi, joylashtirish sig‘imi, ekonometrik modellashtirish, raqamli destinatsiya platformasi, turizm xizmatlari eksporti.

Abstract: This article provides a systematic study of the factors influencing the development of innovative tourism services within the digital economy. The objective of the research is to identify the factors that affect innovative tourism services, classify them on a scientific basis, and substantiate mechanisms for their effective utilization.

Key words: digital economy, innovative tourism services, influencing factors, tourism infrastructure, accommodation facilities, econometric modeling, digital platform for tourism destinations, export of tourism services.

Аннотация: В данной статье систематически изучаются факторы, влияющие на развитие инновационных туристических услуг в цифровой экономике. Цель исследования – выявить факторы, влияющие на инновационные туристические услуги, классифицировать их на научной основе и обосновать механизмы их эффективного использования.

Ключевые слова: цифровая экономика, инновационные туристические услуги, факторы влияния, туристическая инфраструктура, возможности размещения, эконометрическое моделирование, цифровая платформа туристических направлений, экспорт туристических услуг.

KIRISH

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalar tomonidan amalga oshirilayotgan transformatsion o‘zgarishlar xizmatlar sohasining barcha tarmoqlariga, jumladan, turizm industriyasiga ham chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida turistik xizmatlarning raqobatbardoshligi nafaqat an’anaviy resurs salohiyati, balki innovatsion texnologiyalarni joriy etish sur’ati va samaradorligi bilan belgilanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, innovatsion turistik xizmatlarni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarni tizimli tadqiq etish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, jahonda iqtisodiy rivojlangan davlatlarning jadal taraqqiyoti xizmat ko‘rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi salmog‘i oshishi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, BMT ma’lumotlariga ko‘ra, “yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi 60–80 % ni tashkil qilmoqda”[1]. Shu bilan birga, dunyoda xizmat ko‘rsatish sohasida yuqori salmoqqa ega bo‘lgan turistik xizmatlarni amalga oshiradigan sektorning ulushi 2025-yilda jahon YAIMining 9,8 foizini tashkil etgan[2]. Shunday ekan, bugungi kunda xizmat ko‘rsatish sohasini tizimli taraqqiy ettirish, ayniqsa, uning alohida turlari, turistik xizmatlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

1 https://www.un.org/sites/un2.un.org/files/icsbglobalmsmesreport2022.pdf
2 https://wttc.org/research/economic-impact?pubDate=20260418

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi turizm sohasida innovatsion xizmatlarni tashkil etish va boshqarishning yangi mexanizmlarini shakllantirmoqda. Mazkur jarayon turistik resurslardan samarali foydalanish, xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kamaytirish, sayyohlik tajribasi sifatini oshirish hamda turistik korxonalarning raqobatbardoshligini mustahkamlash imkonini bermoqda. Shu bois raqamli sharoitda innovatsion turistik xizmatlarni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar masalasi xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilmoqda. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda raqamli texnologiyalar asosida turistik xizmatlarni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari keng yoritilgan. V. Aggarwal va V. Mishra o‘zlarining “Virtual Travel and the Digital Economy: Redefining Tourism in the Age of Innovation”[3] maqolalarida PRISMA protokoli asosida Scopus va Web of Science bazalaridagi 545 ta yozuvni saralab, 58 ta tadqiqotni tahlilga kiritgan holda virtual turizm va raqamli iqtisodiyot integratsiyasining beshta asosiy mavzusini aniqlagan: turizm tajribasining raqamli transformatsiyasi, iste’molchilarning qabul qilish xatti-harakati, barqarorlik paradigmasi, raqamli biznes-modellarning innovatsiyasi hamda boshqaruv va etika masalalari. Tadqiqotning muhim xulosasi shundan iboratki, immersiv texnologiyalar (AR/VR), sun’iy intellekt va blokcheyn kengaytiriladigan yechimlar taqdim eta olishiga qaramay, inklyuzivlik va barqarorlik borasidagi da’volar ko‘pincha bo‘rttirib ko‘rsatiladi; raqamli charchoq, haqiqiylikning yo‘qolishi, infratuzilma tengsizligi va raqamli qurilmalarning ekologik xarajatlari jiddiy cheklovlar sifatida saqlanib qoladi. Ushbu tanqidiy yondashuv texnologik determinizmga berilishdan saqlanish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham turizm sohasini raqamlashtirish hamda innovatsion xizmatlarni modernizatsiya qilish masalalari ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rilmoqda. Xususan, H. A. Nazarovning “Turizm sohasida raqamli platformalar va elektron xizmatlarning iqtisodiy samaradorligi”[4] maqolasi ushbu yo‘nalishdagi eng bevosita manba hisoblanadi. Maqolada 2020–2024-yillar statistik ma’lumotlari asosida E-Visa.gov.uz, Uzbooking.uz va Tourism.uz platformalarining turizm qiymat zanjiriga integratsiyalashuvini tahlil qilib, raqamli xizmatlar orqali soliq tushumlari 2,4 baravar, mobil tranzaksiyalar hajmi 4,2 baravar oshganini hamda sayyohlar oqimi 1,5 millionga yetganini aniqlagan.

R. A. Anorboyevaning “Turizm sohasini raqamlashtirish imkoniyatlari”[5] maqolasi raqamlashtirishning nazariy jihatlarini yoritib, raqamli texnologiyalar iste’molchi tomonidan qidiruv va tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishini, taklif tomondan esa korxonalarning bozor raqobatbardoshligini oshirishini ta’kidlaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud ilmiy ishlarda raqamli platformalarning iqtisodiy samarasi, “aqlli turizm”ning texnologik mexanizmlari va innovatsion xizmatlarning amaliy misollari yetarlicha o‘rganilgan. Xususan, Aggarwal va Mishra tomonidan qayd etilganidek, mavjud tadqiqotlarda yaxlit konseptual model yetishmaydi, empirik asos zaif va barqarorlikning foyda hamda xarajatlarini asimmetrik ko‘rib chiqish tendensiyasi kuzatiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion turistik xizmatlarni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarni ilmiy asoslash hamda ularning amaliy samaradorligini baholashga qaratilgan kompleks metodologik yondashuv qo’llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini iqtisodiy nazariya, innovatsion rivojlanish konsepsiyasi, raqamli transformatsiya tamoyillari hamda xizmatlar iqtisodiyoti va turizm menejmenti bo’yicha zamonaviy ilmiy qarashlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv (system approach) usulidan foydalanilib, turistik xizmatlar tizimi o’zaro bog’liq bo’lgan iqtisodiy, tashkiliy, texnologik va institutsional elementlar majmui sifatida tahlil qilindi. Mazkur metodologik yondashuv innovatsion turistik xizmatlarni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarni kompleks baholash, ularning samaradorligini aniqlash hamda amaliyotga joriy etishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xizmatlar sohasining tarkibiy qismi sifatida turizm bugungi kunda eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Xalqaro tadqiqotlarda qayd etilishicha, xizmatlar qishloq xo‘jaligi va sanoat tarmoqlarini birgalikda olgandagidan ham tezroq sur’atlarda o‘smoqda, turizm bilan bog‘liq korxonalar esa dunyo miqyosida yangi ish o‘rinlarini yaratishda yetakchilik qilmoqda; prognozlarga ko‘ra, turizm 2025-yilga kelib qariyb 350 mln ish o‘rnini ta’minlaydi[6]. Biroq turistik xizmatlarning hududlarda qanday sur’atda rivojlanishi mavjud resurslarning

3 https://journals.itb.ac.id/index.php/ajht/citationstylelanguage/get/apa?submissionId=26657&publicationId=27258
4 https://cyberleninka.ru/article/n/turizm-sohasida-raqamli-platformalar-va-elektron-xizmatlarning-iqtisodiy-samaradorligi
5 https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/00110/110_i_20250526_173627_2.14.pdf
6 Cook R.A., Hsu C.H.C., Taylor L.L. Tourism: The Business of Hospitality and Travel. – 6th ed., Global ed. – Harlow: Pearson Education Limited, 2018. – P. 18.

ko‘pligiga emas, balki ularga ta’sir etuvchi omillardan qanchalik samarali foydalanilishiga bog‘liq. Shu bois ushbu paragrafda turistik xizmatlarni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarning nazariy asoslari umumlashtiriladi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida ulardan foydalanish holati tahlil qilinadi.

Omillarni tizimlashtirishda R.A. Kuk, K. Xsu va L. Teylor taklif etgan integrallashgan turizm modeli muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Unga ko‘ra, sayyoh modelning markazida turadi, uning atrofida turizmni ilgari suruvchilar (turagentlar, turoperatorlar, turistik kengashlar, tadbir rejalashtiruvchilar), keyingi qatlamda xizmat yetkazib beruvchilar (transport, joylashtirish, ovqatlanish, attraksionlar, destinatsiyalar), eng tashqi qatlamda esa ijtimoiy-madaniy, siyosiy, ekologik, iqtisodiy va texnologik muhit kuchlari joylashgan[7]. Mualliflar tarixiy tahlil asosida turizm odamlarda bo‘sh vaqt mavjud bo‘lgan, sayohat oson va xavfsiz, valyuta almashtirish qulay, umumiy tillarda so‘zlashiladigan va huquqiy tizim shaxsiy xavfsizlik hissini yaratgan joylarda gullab-yashnashini, bu shartlardan birining yo‘qligi esa sayohatga intilishni susaytirishini ko‘rsatadi[8]. Geografik jihatdan esa tabiiy xususiyatlar bilan bir qatorda joylashuv va borish qulayligi turizm faolligini belgilovchi asosiy omillar sifatida e’tirof etiladi[9].

Turistik xizmat faoliyati bo‘lgani sababli uning rivojlanishiga xizmatlarning o‘ziga xos belgilari, nomoddiylik, o‘zgaruvchanlik, saqlab bo‘lmaslik, ishlab chiqarish va iste’molning bir vaqtdaligi hamda egalik huquqining yo‘qligi ham ta’sir ko‘rsatadi[10]. A.P. Opute va hammualliflar hamda A. Parasuraman va boshqalarning xizmat sifati bo‘shliqlari modeliga[11] tayanib, mijoz kutgan va haqiqatda olgan xizmat o‘rtasidagi farqni qisqartirish turizm korxonalari raqobatbardoshligining asosiy sharti ekanini asoslaydi. F. Uilyams va M. MakLeod esa Yevropaning periferik qishloq hududlari tajribasida hududning turistik mahsuloti ko‘plab omillar ta’sirida shakllansa-da, omillarning ko‘pligidan ko‘ra ulardan qanchalik samarali foydalanilishi muhimroq ekanini ta’kidlaydi[12]. Ushbu nazariy qarashlarni umumlashtirib, turistik xizmatlarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarni sakkiz guruhga ajratish mumkin (1-jadval).

1-jadval. Turistik xizmatlarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar va ularning Qoraqalpog‘istonda namoyon bo‘lishi[13]

Ta’sir etuvchi omillarning guruhi	Qoraqalpog‘istonda namoyon bo‘lishi
Tabiiy-geografik va rekreatsion	Orol dengizi, Ustyurt platosi, Aqchako‘l va Qaratereng ko‘llari bo’yicha keskin kontinental iqlim va mavsumiylikda namoyon bo’ladi.
Tarixiy-madaniy	Qadimgi Xorazm qal’alari, Mizdahkon, Chilpiq, Savitskiy muzeyi, qoraqalpoq etnomadaniyatida namoyon bo’ladi
Infratuzilma va borish qulayligi	Asosiy marshrutlardan uzoqlik; 106 ta joylashtirish vositasi, cheklangan sig‘imdan samarali foydalanishda namoyon bo’ladi
Institutsional-huquqiy	«Turizm to‘g‘risida»gi Qonun, PQ-245, PF-87, master-rejalar ijrosini ta’minlashda
Iqtisodiy-moliyaviy va investitsion	152,8 mlrd so‘mlik 44 ta loyiha; past marja, investitsiya jalb qilish jarayonini amalga oshirishda
Kadrlar va xizmat sifati	Gid-tarjimonlar tanqisligi, xizmat standartlarining notekisligi muommolarini hal etishda
Raqamli texnologiyalar va marketing	e-mehmon.uz tizimi, xalqaro ko‘rgazmalar, festivallar, sayyohlik qo‘llanmalarini ishlab chiqishda
Ekologik	Orol inqirozi — ham ekoturizm imkoniyati, ham cheklovchi omil bilan bog’liq muommolarni hal etishda

Tabiiy-geografik va tarixiy-madaniy omillar Qoraqalpog‘iston turizmining asosiy raqobat ustunligini tashkil etadi. Hududda Qadimgi Xorazm qal’alari (Ayozqal’a, Tuproqqal’a, Janbosqal’a va boshqalar), Mizdahkon arxeologik majmuasi, Chilpiq qal’asi, I.V. Savitskiy nomidagi Davlat san’at muzeyi, Ustyurt platosi hamda Orol dengizi fojiasi bilan bog‘liq obyektlar joylashgan. Biroq keskin kontinental iqlim turistik oqimning bahor va kuz

7 Cook R.A., Hsu C.H.C., Taylor L.L. Ko‘rsatilgan asar. – P. 20–21.
8 Cook R.A., Hsu C.H.C., Taylor L.L. Ko‘rsatilgan asar. – P. 24.
9 Cook R.A., Hsu C.H.C., Taylor L.L. Ko‘rsatilgan asar. – P. 37–38.
10 Opute A.P., Irene B., Iwu C.G. Tourism Service and Digital Technologies: A Value Creation Perspective // African Journal of Hospitality, Tourism and Leisure. – 2020. – Vol. 9, No. 2. – ISSN 2223-814X. – URL: www.ajhtl.com
11 Parasuraman A., Zeithaml V.A., Berry L.L. A Conceptual Model of Service Quality and Its Implications for Future Research // Journal of Marketing. – 1985. – Vol. 49, No. 4. – P. 41–50.
12 Williams F., MacLeod M. Tourism Development: Hard Core or Soft Touch? // Managing Tourism and Hospitality Services: Theory and International Applications / Ed. by B. Prideaux, G. Moscardo, E. Laws. – Wallingford: CABI, 2006. – P. 126–144.
13 Muallif ishlanmasi.

oylarida to‘planishiga, ya’ni yaqqol mavsumiylikka olib keladi. Shu sababli tabiiy resurslardan foydalanish mavsumdan tashqari davrlarga mo‘ljallangan mahsulotlar —tadbirlar, madaniy va gastronomik dasturlar bilan to‘ldirilishi lozim.

Institutsional-huquqiy omillar so‘nggi yillarda sezilarli darajada kuchaydi. «Turizm to‘g‘risida»gi Qonun[14] sohaning umumiy huquqiy asosini belgilagan bo‘lsa, Prezidentning PQ-245-son qaroriga muvofiq Ellikqal’a tumanidagi «Aqchako‘l» va Taxtako‘pir tumanidagi «Qaratereng» ko‘llari bo‘yida yirik turizm maskanlarining master-rejalari ishlab chiqilmoqda[15]. PF-87-son farmon asosida esa «Chilpiq milliy etnomadaniy turistik park», Amudaryo tumanidagi «Qipchoq baliqchilar ovuli», *Nukus* shahridagi «Ashshikul Sands» loyihalari amalga oshirilmoqda hamda Mizdahkon yodgorligi yangi turistik brend sifatida rivojlantirilmoqda[16]. Ushbu hujjatlar hududiy turizmni rivojlantirishni nuqtali loyihalardan kompleks destinatsiyalarni shakllantirishga o‘tkazishga yo‘naltirilgan.

Hudud turizmining asosiy ko‘rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan (2-jadval).

2-jadval. Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm sohasining asosiy ko‘rsatkichlari (2025-yil 1-sentyabr holatiga)[17]

Ko‘rsatkich	Qiymati
Tashrif buyurgan xorijiy fuqarolar, ming nafar	221
Tashkil etilgan mahalliy turistik sayohatlar, ming nafar	911
Turistik xizmatlar eksporti, mln AQSh dollari	28,847
Faoliyat ko‘rsatayotgan turoperatorlar, ta (shu jumladan 2025-yilda yangi)	75 (10)
Faoliyat ko‘rsatayotgan turagentlar, ta (shu jumladan 2025-yilda yangi)	19 (6)
Joylashtirish vositalari, ta	106
2025-yilda tashkil etilgan joylashtirish vositalari: mehmonxona / xostel / oilaviy mehmon uyi	3 / 10 / 4
2025–2026-yillarga shakllantirilgan loyihalar, ta / mlrd so‘m	44 / 152,8
Ishga tushirilgan loyihalar, ta / mlrd so‘m	22 / 61,3
Ishga tushirilgan loyihalar orqali yaratilgan ish o‘rinlari, ta	46

Iqtisodiy-investitsion omillar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hududda turizm va unga yondosh xizmatlar sohasida umumiy qiymati 152,8 mlrd so‘mlik 44 ta loyiha shakllantirilgan, ulardan 61,3 mlrd so‘mlik 22 tasi ishga tushirilgan va 46 ta ish o‘rni yaratilgan. Hisob-kitoblarga ko‘ra, bitta loyihaga o‘rtacha 2,1 ta ish o‘rni to‘g‘ri kelmoqda, bir ish o‘rnini yaratish uchun esa o‘rtacha 1,33 mlrd so‘m investitsiya sarflangan. Infratuzilma va joylashtirish omillari hudud uchun asosiy cheklovchi omil bo‘lib qolmoqda. Respublikada 106 ta joylashtirish vositasi mavjud bo‘lib, 2025-yilda tashkil etilgan 17 ta obyektning 14 tasini xostel va oilaviy mehmon uylari tashkil etadi. Bu holat Uilyams va MakLeod ta’kidlagan periferik hududlarga xos «yumshoq» — mahalliy tashabbusga asoslangan kichik miqyosdagi turizm modelining shakllanayotganidan dalolat beradi[18]. Mazkur model mahalliy aholining daromadini oshirishga va madaniy muhitni saqlashga xizmat qiladi, biroq yirik guruhlar va MICE turizmini qabul qilish imkoniyatini cheklaydi. Qoraqalpog‘istonning Samarqand–Buxoro–Xiva asosiy turistik yo‘nalishidan uzoqligi esa transport qulayligini oshirish, Xiva–Nukus–Mo‘ynoq yo‘nalishi bo‘yicha muntazam transport qatnovlarini yo‘lga qo‘yish zaruratini keltirib chiqaradi.

Yuqorida tavsiflangan omillar ta’sirini miqdoriy baholash uchun eng kichik kvadratlar usuli va uning variatsiyalari asosida regression tahlil o‘tkazildi. Axborot bazasi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ochiq ma’lumotlar portalidagi turizm statistikasining 2010–2025-yillar bo‘yicha yillik qatorlaridan foydalanildi[19]. Ta’kidlash joizki, mazkur portalda turizm ko‘rsatkichlari respublika darajasida e’lon qilingan bo‘lib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha regressiya qurish uchun yetarli uzunlikdagi hududiy vaqt qatorlari mavjud emas. Shu sababli model respublika darajasida baholanib, olingan elastiklik koeffitsiyentlari keyinchalik Qoraqalpog‘iston ko‘rsatkichlariga tatbiq etildi.

14 O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi «Turizm to‘g‘risida»gi O‘RQ-549-son Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: www.lex.uz

15 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 8-iyuldagi PQ-245-son qarori // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: www.lex.uz

16 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-87-son farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. www.lex.uz

17 Qoraqalpog‘iston Respublikasiga 2025-yilda sayyohlarni jalb qilish ko‘rsatkichlari asosida tuzilgan

18 Williams F., MacLeod M. Ko‘rsatilgan asar. – P. 126–127.

19 O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Ochiq ma’lumotlar: Ijtimoiy soha — Turizm. Ko‘rsatkichlar kodlari: 2.04.11.0062 «Turistik firma va tashkilotlar tomonidan xizmat ko‘rsatilganlar soni»; 2.04.11.0061 «Turistik firma va tashkilotlar soni»; 2.04.11.0041 «Jamoaviy joylashtirish vositalari obyektlari soni»; 2.04.11.0042 «Jamoaviy joylashtirish vositalaridagi joylar soni». – URL: https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2 (murojaat sanasi: 27.09.2026).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion turistik xizmatlarni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar yagona tizim sifatida sakkiz guruhga — tabiiy-geografik va rekreatsion, tarixiy-madaniy, infratuzilma va borish qulayligi, institutsional-huquqiy, iqtisodiy-moliyaviy va investitsion, kadrlar va xizmat sifati, raqamli texnologiyalar va marketing hamda ekologik omillarga ajratiladi. Ushbu omillar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning samaradorligi alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida baholanganda to‘liq namoyon bo‘ladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida o‘tkazilgan tahlil tabiiy-geografik, tarixiy-madaniy va institutsional omillar rag‘batlantiruvchi, infratuzilma, borish qulayligi, mavsumiylik va kadrlar bilan bog‘liq omillar esa cheklovchi xususiyatga ega ekanini aniqlandi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, innovatsion turistik xizmatlarni rivojlantirishni takomillashtirish bo‘yicha quyidagi iqtisodiy takliflar ishlab chiqildi:

investitsiyalarni kompleks turizm maskanlariga yo‘naltirish;
davlat-xususiy sheriklik va imtiyozli kreditlash mexanizmlarini kengaytirish;
hududiy raqamli destinatsiya platformasini shakllantirish;
mavsumiylikni yumshatish va sayyohlarning bo‘lish muddatini uzaytirish;
kadrlar salohiyatini kuchaytirish;
transport qulayligini oshirish.

Yuqoridagi takliflarni amalga oshirish innovatsion turistik xizmatlarni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillardan samarali foydalanishni ta’minlab, turizm xizmatlari eksportini oshirish, hududlararo tafovutni kamaytirish va belgilangan maqsadlarga erishishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi Oliy Majlis va xalqqa Murojaatnomasi. – Toshkent, 2025.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi “2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko‘paytirish va turistik xizmatlar ko‘lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. – 2025.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Turizm qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish va sohani jadal rivojlantirishga oid qarori” // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. – 2025.
4. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi ma’lumotlari: “Xorijiy turistlar sonini 2030-yilgacha 20 million nafarga yetkazish — ustuvor vazifa” // O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali. – 2026-yil 16-yanvar.
8. Aggarwal, V., & Mishra, V. (2026). Virtual Travel and the Digital Economy: Redefining Tourism in the Age of Innovation. ASEAN Journal on Hospitality and Tourism, 24(2), 152–169. https://doi.org/10.5614/ajht.2026.24.2.03
9. Katsoni, V., & Cassar, G. (Eds.). (2024). Recent Advancements in Tourism Business, Technology and Social Sciences: 10th International Conference, IACuDiT, Crete, Greece, 2023, Vol. 1. Cham: Springer Nature Switzerland. ISBN 978-3-031-54338-8.
10. Buhalis, D., Taheri, B., & Rahimi, R. (Eds.). (2022). Smart Cities and Tourism: Co-creating Experiences, Challenges and Opportunities. Oxford: Goodfellow Publishers. ISBN 978-1-915097-08-8.
14. Nazarov, H. A. (2025). Turizm sohasida raqamli platformalar va elektron xizmatlarning iqtisodiy samaradorligi. Zenodo. https://zenodo.org/records/21929850
15. Anorboyeva, R. A. (2023). Turizm sohasini raqamlashtirish imkoniyatlari. Results of National Scientific Research International Journal, 2(5), 98–103. ISSN 2181-3639.
16. Xojaqulova, N. T. (2026). Turizm va mehmonxona xo‘jaligida innovatsion xizmatlar: O‘zbekiston misolida real holat va istiqbollar. Ilmiy tadqiqotlar jurnali. https://doi.org/10.5281/zenodo.18296685



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

2026. VI maxsus son

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz










SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
"INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI" MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
2026-yil 25-26-sentabr



